

## OGAHIY G'AZALLARIDA SHE'RIY SAN'AT TURLARINING ISHLATILISHIGA DOIR

**Mohinur Azimqulova**

*TDSHU 1-kurs talabasi*

Tel: +998991671235, e-mail: mokhinurazimkulova@gmail.com

*Ilmiy rahbar:*

*filol.f.d., prof. v.b. Xayrulla Hamidov*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Ogahiyning bir qator g'azallari tahlilga tortiladi va ularda ishlatilgan janrlar, she'riy san'at turlari muhokama qilinadi.*

**Kalit so'z va iboralar:** *tazod, she'riy san'at turlari, g'azal, nido*

**Аннотация** *В данной статье анализируется ряд газелей Огахи и рассматриваются использованные в них жанры и виды поэтического искусства.*

**Ключевые слова и выражения:** *тазад, виды поэтического искусства, газель, восклицание*

**Abstract:** *This article talks about the historical manuscripts created by Ogahi, their This article analyzes a number of Ogahi's ghazals and discusses the genres and types of poetic art used in them.*

**Key words and expressions:** *tazad, types of poetic art, ghazal, exclamation.*

Muhammad Rizo Erniyozbek O'g'li Ogahiy tarjima va tarix sohasida qanchalik barakali ijod qilgan bo'lsa, shoir sifatida ham bir qancha g'azallar yozganligiga guvoh bo'lamiz. Ogahiy barcha janrda yozilgan g'azallarini to'plab "Ta'viz-ul oshiqin" (Oshiqlar tumori) nomini bergan. Devon shoh va shoir Feruzning talab va taklifiga binoan yozilgan bo'lib, an'anaviy tarzda 470 g'azal, 3 mustazod, 89 muhammas, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4 tarje'band, 7 qit'a, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri tavil, 1 munojot, 1 oshiq va ma'shuq savol-javobi, 20 ta'rix, 19 qasida – jami 18000 misradan iborat. Devonga "Ash'ori forsiy" nomi ham beriladi. Ammo bu nom berilishi qisman notog'ri deb o'ylayman. Chunki, devonda faqatgina forsiy emas, turkiy shE'rlar ham bitilgan.

Keling uni "Ey quyosh, yuzing ochgin" nomli g'azalini tahlilga tortamiz:

Ey quyosh, yuzing ochgin g'am tunida zoringman

Sidq ila nafas urg'on subhi beg'uboringman.



Birinchi misrada, *ey quyosh* so'zi nido bo'lib kelmoqda. Shuningdek, tazod shE'riy san'atidan ham o'rinli foydalanilgan. Birinchi qatordagi *tun* ikkinchi qatordagi *subh* (erta tong) so'zlari o'zaro tazodni shakllantirgan. G'am tunida quyoshning yuzini ochishi o'xshatish ya'ni tashbexni yuzaga keltirmoqda. G'azaldagi zoringman, beg'uboringman so'zlari esa

San jamolu hashmatda husn mulki shohisan  
Man malolu kulfatda bandai nazoringman.

Ikkinchi misrada esa *hashmat* va *kulfat*, *shoh* va *banda* so'zlari o'zaro tazod janrini hosil qilmoqda.

Qilma ayb agar qilsam ishqing ichra ojizliq,  
Qariliq yuki bosg'on zori bemadoringman.

Garchi o'zgalar yonliq aylay olmog'im xizmat

Lek alar qatorida bir umidvoringman. Uchinchi qatordagi *o'zgalar* so'zining takrorini oldini olish maqsadida shoir keyingi qatorda *alar* tarzida so'z qo'llagan.

Necha umrlardurkim furqati g'ami ichra

Yig'labon kecha-kunduz zori beqaroringman.

Ko'rib turganimizdek, yuqorida keltirilgan baytlarda ham tazod shE'riy san'atidan faol foydalanilgan. Mazkur baytda ham *kecha-kunduz* ham tazod ham tanosub she'riy san'atini hosil qilmoqda. Tazod bu mutobiqa, mutazod (arab. — zidlash) — badiiy tasvirning ta'sirchan va keng qo'llanadigan vositalaridan. Nasrda ham, nazmda ham uchraydi. O'zaro zid tushunchalarni ifodalovchi so'z yoki iboralarni ishlatishda ko'zga tashlanadi.

Marhamat ko'zi birla holima nazar qilg'il,

Ko'ying ichra yer tutg'on bir duoga zoringman.

Istasam aziz bo'lmoq, tong yo'q iltifotingdin,

Chunki Ogahiy yanglig' ishq ichra xoringman.

*Xor* va *zor* so'zlari tanosub shE'riy janrini vujudga keltirsa, *nazar qilg'il* va *iltifot ayla* so'zlari ham o'zaro sinonimik qatorni yuzaga keltirmoqda.

Shoir she'rlarida faqatgina yor timsoli emas, balki, adolat, oqillik, ilm-idrok, tabiat tasviri ham alohida mavzuni egallaydi. Shuningdek shoirning ichki kechinmalari ham alohida mavzuni egallaydi. Misol uchun Ogahiyning sevimli shogirti vafotidan keyin Ogahiy farzandsizligi sabab shogirtiga mehr qo'yadi, ammo uning o'limi Ogahiy chuqur g'am-anduhda qolishiga asos bo'ladi.

Bilintirmas edi o'g'ilsizligim

O'g'ilsizlik ila farzandsizligim. deya unga bag'ishlab g'azal yozadi. Ko'rib turganimizdek, O'g'ilsizlik so'zi bilan Ogahiy farzandi bo'lmagani haqida ham ma'lumot keltirib o'tmoqda.



Tabiat tasvirini asosiy mavzu qilib olgan Ogahiy suvni *suzukka* o'xshatgani ham adabiyotimizda ma'lum, shuningdek Xivada qish juda qattiq kelishi, kunning juda ham sovub ketishini o'zining *Sovuq* nomli g'azalida ifodalab o'tadi.

Ustina radifli g'azalidagi she'riy san'atlarga to'xtalib o'tsak,  
Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,  
Qatlim uchun «nas» keltirur «nun» eltibon «sod» ustina.

Birinchi misrada «nas», «nun», «sod», qosh so'zlari o'zaro tanosub so'zlar. Tanosub bu: she'r baytlarida bir-biriga bog'liq va bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash san'ati. Biror narsani o'ylaganimizda ko'z oldimizga uning belgilari, xususiyatlari keladi. Masalan, quyosh haqida gap ketganda, avvalo, uning nur sochishini xayolga keltiramiz, yuz deganda uning bilan bevosita bog'liq ko'z, qosh, lab, og'iz kabilar xayolda jonlanadi. Bir manzarani shular yordamidagina to'laroq tasavvur qilamiz. She'riyatda ham shunday. Shoir biror hodisani tasvirlar ekan, ma'no jihatidan unga yaqin so'zlarni ishlatadi va bu uning yorqinroq, ishonchliroq tasvirlanishiga yordam beradi.<sup>37</sup> Misol uchun quyidagi baytni keltirish mumkin:

Qilg'il tamosho qomati, zebosi birla orazin,

Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina. Misrasidagi qomat, oraz so'zlari tanosub san'atini yuzaga keltirmoqda.

Noz-u ado-vu g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam,

Vah, muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina. Ushbu misradagi noz, g'amza, ado tanosubni yuzaga keltirmoqda.

Keyingi g'azallardan bir necha baytlarni tahlil qilish yordamida Ogahiy uslubiyatini o'rganish mumkin.

Davlati vaslidin el ichra Sulaymonlig' topib,

Halqai baxti qavi ilkimda xotamdur mango.

“Mango” radifli g'azalidan olingan ushbu baytda “Sulaymonlig” so'zi qo'llanganligi tufayli talmeh san'ati yuzaga kelgan.

Talmeh – baytda tarixiy yoki afsonaviy shaxslar va joy nomlarini qo'llash san'ati. Sulaymon alayhissalom – Qur'oni Karimda nomi zikr etilgan payg'ambarlardan biri. Bu zotga Haq taolo tomonidan shamol hamda jinlar olami bo'ysundirib berildi, qo'lidagi uzuk orqali esa barcha hayvonlar tilini tushunmoqlik inoyati hadya etildi. Baytda lirik qahramon yorning “davlati vaslidin”, ya'ni “yorning jamolidan” el ichida Sulaymondek baxt topganligini aytmoqda.<sup>38</sup>

<sup>37</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanosub>

<sup>38</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Talmih>



Ushbu baxt esa lirik qahramonning “ilkida” (qo’lida) xuddi “xotamdek” (saxiy insondek) marhamat ko’rgazmoqda. Yor vasli orqali oshiqning qo’liga Sulaymon alayhissalom erishgan baxtni tutqazmoqda deyish mumkin.

Gisularimu ul yuz ustida makon etkan,  
Ganj uzra va yo ikki ajdarmu ekan oyo.<sup>39</sup>

Yaxshidur o,lsa yaxshi bilan muxtalit yomon, Yaxshi yomondur etsa yomon birla ixtilot. “Ixtilot” radifli g’azalidan olingan ushbu baytda anafora badiiy san’ati qo’llangan. Anafora – banddagi misra, gaplarning boshidagi so’z yoki so’z birikmasining boshqa misralar boshida ham takrorlanib kelishi orqali hosil qilinadigan badiiy san’atdir. Baytdagi “yaxshidur” hamda “yaxshi” so’zlari orqali anafora yuzaga kelgan. Shuningdek, “yaxshi” va “yomon” so’zlarining har ikki misrasida ham ishlatilishi orqali tazod ham qo’llanilgan. G’azaldagi “ixtilot” so’zi “aralashish”, “bordi-keldi qilish” degan ma’nolarni anglatadi. Baytdagi ma’no budir: yomon insonning yaxshi bilan aralashishi yaxshidur, chunki bunda yomonning ham yaxshiga aylanish ehtimoli bor. Ammo yaxshi insonning yomon bilan yurishi, uning ishlariga aralashishi oqibatida yaxshining ham yomonga aylanish ehtimoli mavjud.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanosub>
2. <sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Talmih>
3. <sup>1</sup>MUHAMMAD RIZO OGAGHIY G‘AZALLARIDA BADIY SAN‘ATLARNING QO‘LLANILISHI
4. Gulchehra Rikhsiyeva. Ogakhi's creative heritage is the basis of spiritual education. - (July 4, 2020, No. 123)
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ogahiy>
6. <https://baxtiyor.uz/ogahiy-haqida-ma-lumot>
7. <https://ogahiy.tsuos.uz/en/ozbekiston-tarjimashunoslari-forumi>
8. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/519>
9. Огаҳий ҳаёти ва ижоди – ёшлар тарбияси учун намуна. Республика конференцияси тўплами.– Тошкент, 2020. – 140 б.



<sup>39</sup> MUHAMMAD RIZO OGAGHIY G‘AZALLARIDA BADIY SAN‘ATLARNING QO‘LLANILISHI

